XALQ DEPUTATLARI DEHQONOBOD TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 6 - avgust VI-42-79-4-57-K/22 Dehqonobod tuman hokimligi

Dehqonobod tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasini raisi, bosh vazir o‘rinbosarining 2022-yil 13-apreldagi 04-01/140-sonli xatini inobatga olib, tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri F.Nurmatovning taqdim etgan hisobotini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri F.Nurmatovning taqdim etgan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli qaroriga asosan tumanda tashkil etilgan oila va xotin-qizlar bo‘limi xodimlarining ish haqlarini o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasini raisi, bosh vazir o‘rinbosarining 2022-yil
13-apreldagi 04-01/140-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashining 2022-yil 5-iyuldagi “Dehqonobod tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi VI-41-73-4-57-K/22-son qarori ilovasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (F.Nurmatov)ga;

- O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi talablariga asosan tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametriga belgilangan tartibda mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan o‘zgartirishlarni kiritish;

- tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan budjet parametri doirasidagi mablag‘lardan maqsadli, samarali va o‘z vaqtida foydalanish maqsadida tuman mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarining so‘rovlariga hamda viloyat moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, shuningdek belgilangan tartiblar asosida o‘zgartirishlar kiritish va kiritilgan o‘zgartirishlar

yuzasidan har chorak yakuni bo‘yicha Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Kengashning mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o’rinbosari U.Usmonov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Aliqulov.Z.X**

Xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashining
2022 yil 6 avgustdagi
VI-42-79-4-57-K/22-son qaroriga
1-ilova

Dehqonobod tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan parametriga

o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

ming.so‘mda

№	Tashkilotlar nomi	Bo‘lim	Kichik bo‘lim	Bob	Xarajatlar moddasi	Jami summa	*Shundan, choraklar va oylar kesimida*										
							2-chorak jami	Aprel	May	Iyun	**3-chorak jami**	Iyul	Avgust	Sentabr	**4-chorak jami**	Oktabr	Noyabr	Dekabr
1	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (QFYlar)	7011	401	259	4111100	**-78732**	**0**				**-36000**	-12000	-10000	-14000	**-42732**	-12913	-17819	-12000
					4121100	**-19037**	**0**				**-9400**	-3400	-2500	-3500	**-9637**	-2275	-4383	-2979
2	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (MFYlar)	7011	402	259	4111100	**-351737**	**0**				**-151554**	-44000	-53777	-53777	**-200183**	0	-100523	-99660
					4121100	**-87924**	**0**				**-39400**	-2400	-12700	-2700	**-48524**	0	-24262	-24262
3	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	7011	906	259	4111100	**-32020**	**0**				**-10000**	0	0	-10000	**-22020**	0	-18615	-3405
					4121100	**-7698**	**0**				**-2500**	0	0	-2500	**-5198**	0	-4407	-791
4	Tuman hokimligi (Hokim yordamchilari tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash xarajatlari)	7049	997	18	4821190	**0**	**0**				**-250106**	0	-87103	-163003	**250106**	-63000	170009	143097
5	Tuman hokimligi (Oila va xotin-qizlar bo‘limi)	7085	400	26	4111100	**461719**	**0**				**399168**	66720	132864	199584	**62551**	62551	0	0
					4121100	**115429**	**0**				**99792**	16680	33216	49896	**15637**	15637	0	0
	Umumiy jami	**x**	**x**	**x**	**x**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**